

BANK INFRATUZILMASINING MOHIYATI VA UNING ASOSIY ELEMENTLARI

*Jarilkapova Naubaxar Paraxat qizi
Qoraqalpoq davlat universiteti Iqtisodiyot
fakulteti 4-kurs moliya va moliyaviy
texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bank infratuzilmasining iqtisodiy mazmuni, uning bank tizimidagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Bank infratuzilmasining tarkibiy qismlari — moliyaviy institutlar, to'lov tizimlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, regulyator organlar va ularning o'zaro aloqalari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada zamonaviy bank infratuzilmasini rivojlantirishdagi dolzab masalalar, xalqaro tajribalar va O'zbekistondagi holat misolida amaliy tavsiyalar berilgan. Infratuzilmaning samarali ishlashi moliyaviy barqarorlik va bank xizmatlari sifatini oshirishdagi o'rni ham yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Bank infratuzilmasi, moliyaviy institutlar, to'lov tizimi, regulyator organlar, axborot texnologiyalari, bank tizimi, infratuzilma elementlari, moliyaviy barqarorlik, zamonaviy bank xizmatlari, raqamlı infratuzilma.

O'zbekiston Respublikasi bank tizimining shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi, moliya-kredit institutlarini xalqaro miqyosga ko'tarilishi ko'p hollarda banklarni moliyaviy boshqaruv muammolarin hal etishga, ya'ni bank kapitali va mablag'larini, umuman olganda bank xizmatlarini kompleks boshqaruviga bog'liqdir.

Iqtisodiy adabiyotlarda hamda amaliyotda "infratuzulma" atamasini bir qancha ma'nolarda ishlatish holatlari mavjud.

Birinchi marta harbiy lug'atdan olingan «infratuzilma» atamasi (lotincha «infra» - ostida, «tuzilish» - joylashish)¹. XIX-asr 40-yillarining oxirlarida G'arb olimlarining ilmiy ishlarida ishlatilgan. XX asrda ushbu atamani iqtisodiy muomalaga kiritilishining asoschisi "infratuzilma" atamasini sanoatni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan atrofdagi dunyoning mavjud sharoitlariga moslashtirish zaruriyati deb ta'kidlagan². Shuni ta'kidlash kerakki, u samarali investitsiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan tarmoqlarning asosiy infratuzilma vositalariga tegishli edi.

Amalda, «infratuzulma» atamasi uchta darajani qamrab oladi:

¹ Финансово-кредитный словарь: в 3-х томах. /Под ред. Гарбузова В.Ф. – М.: «Финансы и статистика», 1994. – Т.1, С. 103

² Федыко В.П., Альбеков А.У., Комарова А.М. Инфраструктура рынка: генезис проблемы. – Ростов-на-Дону, 1996. – С.71

1. Faoliyat amalga oshirilayotgan va mavjud bo‘lmagan va iqtisodiy jihatdan maqsadsiz bo‘lgan (masalan, yo‘llar, elektron xabarlar) haqiqiy moddiy tarmoqlar.
2. Operatsiyalar - infratuzilma tarmog‘ining faoliyati.
3. Infratuzulma bozorlari tarmoqlardan foydalanishga bo‘lgan talab va taklifning kombinatsiyasi va infratuzilma elementlari o‘rtasidagi raqobat (infratuzulma tarmoqlarining turlicha yuklatilishiga olib keladi)³.

Iqtisodiyotda infratuzulma tarmog‘i turli xil bo‘lib, bunda bank infratuzilmasi muhim o‘rin tutadi. Ideal holda, bank jarayoni sub’ekt (bank) va ob’ekt (mijoz) ning o‘zaro ta’siri sifatida infratuzilmani ishlatmasdan amalga oshirilishi mumkin. Ammo shu bilan birga, banklar ilk rivojlanish davrlaridan boshlab o‘zidan boshqa bo‘lgan tizimlardan o‘zlarining ish faoliyati samaradorligini oshirish uchun foydalanganlar. Mavjud infratuzulma bankka qo‘srimcha afzalliklarni beradi.

O’tgan asrning o‘rtalaridan boshlab G’arb adabiyotida infratuzilma xususiy ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirishning umumiy shartlari sifatida tushunilgan edi.⁴ Jumladan, P. Samuelsonning ta’kidlashicha, davlat infratuzilmani investitsiya qiladi, chunki "... davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan kapitalning ko‘payishi" - (ijtimoiy qo‘srimcha kapital) xususiy investorlarga pul ko‘rinishidagi daromad keltirmaydigan kapitalga nisbatan ma’lum miqdorda foya keltiradi. Chunki xususiy investorlarga qarzni qaytarish muddati juda uzoqligi sababli ularni daromad olishga qiziqtirish qiyin va bu kapitalning hajmi xususiy kapital kapital bozorlaridagidan ko‘p».

Demak bank tizimi faoliyatini rivojlanishida bank infratuzilmasidan foydalanish bankning ma’lum foya darajasini tashkil etadi. Bu o‘rtacha qiymat, raqobatdagi qiymatning minimal qiymatini kafolatlaydi.

Bank infratuzilmasini rivojlantirish borasida Rossiyalik olim O.I.Lavrushin o‘z ilmiy ishlarida bank infratuzilmasini tarkiblashga alohida e’tibor bergan. Shunisi e’tiborlik, uning qarashlari shu davr mobaynida hech ham o‘zgarmagan. U bank infratuzilmasini ikkita qismga (ichki va tashqi bank infratuzilmasiga) ajratishni taklif etadi.⁵ Olimning ta’kidlashicha, ichki blokning vazifasi bankning ichki barqarorligini, tashqi blokning vazifasi esa bankning tashqi muhit bilan o‘zaro aloqasini ta’minlashdan iborat. Mazkur bo‘linishdan kelib chiqqan holda ichki blok qismlarini quyidagi tarzda guruhash taklif etiladi:

- 1) kredit muassasining maqomi, u tomonidan bajarilayotgan operatsiyalar ro‘yxatini belgilovchi qonunchilik normalari;

³ Новиков В.А. Практическая рыночная экономика. Толкование 4000 терминов: Словарь – М.: «Флинта», Московский психолого-педагогический институт, 1999

⁴ Самуэльсон П. Экономика. – М.: Алгон, 1992. – Т.2, С. 324.

⁵ Котов А.В. Формирование и развитие банковской инфраструктуры в России. - Саратов, 2004. С 14.

2) qonunchilik hujjatlari talablari bajarilishi, omonatchilar va bank mijozlar manfaatlari, uning shaxsiy manfaati himoyalanishi, umuman, uslubiy jihatdan ta'minlab beruvchi operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha ichki qoidalar;

3) zamonaviy kommunikatsiya tizimlari asosida hisob yuritish, hisobot berish, tahlil qilish, ma'lumotlarni kompyuter orqali qayta ishlash, bank faoliyatini boshqarish tizimi;

4) bankning boshqaruv apparati.

O.I. Lavrushin bank infratuzilmasini ichki va tashqi bloklarga ajratgan holda guruhlagan bo'lsa, O'zbekistonlik iqtisodchi-olim A.V. Kotov esa aksincha "bank infratuzilmasi deb, bank faoliyatini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib beruvchi va bank xizmatlarini yaratish va ularni iste'molchilarga etkazib berishga ko'maklashuvchi institutlar yig'indisi" deb ta'riflagan⁶.

Bank infratuzilmasiga nisbatan shunga o'xhash yondashuv yana bir rus iqtisodchi olimi E.F.Jukov tahriri ostidagi "Pul, kredit, bank" darsligida O.I. Lavrushinining ilmiy qarashlariga mos ravishda izohlangan, ya'ni bank infratuzilmasining to'rtta yo'nalishga-axborot, uslubiy, ilmiy va kadrlarga oid yo'nalishlariga ajratgan⁷.

Shunday qilib, bank infratuzilmasi turli xildagi korxonalarini, ya'ni, banklarning samarali faoliyatini ta'minlaydigan agentliklar va xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar majmuasini o'z ichiga oladi.

Ushbu ko'rib o'tilganlarga asoslangan holda aytish mumkinki, bank infratuzilmasi, xuddi uni yaratish va rivojlantirish fondi kabi ikki qismdan iborat: ichki va tashqi.

Bank xodimlarining normal faoliyati uchun eng avvalo ichki bank infratuzilmasini rivojlantirish talab etiladi. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi:

1) kredit tashkilotining maqomini belgilovchi me'yorlar va ular tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar ro'yxati;

2) qonun hujjalaringin bajarilishini ta'minlash hamda o'z manfaatlari, shuningdek omonatchilar va bank mijozlarining manfaatlarini himoya qilish bo'yicha bitimlarning ichki qoidalari;

3) zamonaviy aloqa tizimlariga asoslangan buxgalteriya hisobi, hisobotlar, tahliliy ma'lumotlar bazasini yaratish, kompyuterda qayta ishlash, banklarni boshqarish;

4) bank boshqaruvining tuzilmasi. Xar bir bankda uning iqtisodiy muassasa sifatidagi maqsadlariga va bankning funksional maqsadlariga javob beradigan bir qator bo'linmalari bo'lishi kerak⁸.

⁶ Котов А.В. Формирование и развитие банковской инфраструктуры в России. - Саратов, 2004. С 14.

⁷ Жуков Е.Ф. Деньги. Кредит. Банки: учеб. для вузов/ Под ред. Е.Ф.Жукова. М.ЮНИТИ-ДАНА, 2003. 600 с.

⁸ Миллер Р.Л., Ван-Хуз Д.Д. Современные деньги и банковское дело. - М.: ИНФРА-М, 2000. -244 С.

Tashqi bank infratuzilmasi o‘z tarkibiga quyidagilarni oladi: axborot, uslubiy, ilmiy va kadrlar bilan ta’minlash, shuningdek aloqa, kommunikatsiya va boshqalar.

Bank faoliyatini tashkil etishda banklar o‘zlarining boshqa elementlari bilan va birinchi navbatda, bank infratuzilmasi bilan o‘zaro munosabatlardagina muvaffaqiyatli rivojlanishi mumkin. Bu bankning hayotiyligini ta’minlaydigan elementlarning majmuasi bo‘lib hisoblanadi.

Bank infratuzilmasi – bank tizimining uzluksiz va samarali faoliyat yuritishi uchun zarur sharoitlarni ta’minlovchi va mijozlarga bank xizmatlarini etkazishga xizmat qiluvchi institut va elementlar majmuasidir.

Kengroq ma’noda bank infratuzilmasi - bu o‘zaro bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan muassasalar tizimi bo‘lib, ular o‘z navbatida milliy bank tizimining kichik tizimlari sifatida, jismoniy va yuridik shaxslarning va davlatning bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘z vaqtida qondirilishini ta’minlaydi.

Umuman olganda, bank infratuzilmasi bank tizimining tashkiliy tuzilmasi tarkibiga kiradi. Shuning uchun bank tizimining o‘zi yuqori darajadagi tizim - iqtisodiy tizimning elementi sifatida ifodalanishi mumkin.

Shunday qilib, bank infratuzilmasining har qanday elementini turlicha aniqlash mumkin va olingan ma'lumotlar asosida bank infratuzilmasini yoki bank sektori uchun uning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish mumkin. Bunday rivojlanishga bo‘lgan ehtiyojni bank infratuzilmasining o‘zi ko‘rsatmoqda. Bu masalalarda davlat nafaqat manfaatdor bo‘lishi kerak, balki u rivojlanishda etakchi va asosiy bo‘lib faoliyat olib borishi zarurdir.

Ma'lumki, zamnaviy bank faoliyati zarur infratuzilmani yaratish bilan chambarchas bog‘liq. Shu bois yurtimizda mazkur yo‘nalishdagi ishlarga alohida e’tibor qaratilib, buning uchun tegishli huquqiy baza mustahkamlanmoqda. Jumladan, “Kredit axboroti almashinuvi to‘g‘risida”gi hamda “Garov reestri to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari bank tizimi barqarorligini ta’minlash va salohiyatini oshirishda muhim omil bo‘lmoqda. Mazkur qonunlar talabidan kelib chiqib, O‘zbekiston Banklari assotsiatsiyasi qoshida “Kredit-axborot tahliliy markazi” kredit byurosi hamda Markaziy bank huzurida “Garov reestri” davlat unitar korxonasi tashkil etildi.

Umuman olganda moliya-kredit tizimining, jumladan, tijorat banklarining eng muhim vazifasi, ko‘p hollarda mamlakat miqyosida etarli kredit qobiliyatiga ega bo‘limgan aholi va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning bank xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga qaratilgan bank xizmatlarini ta’minlashdan iborat. Biroq, bu vazifa o‘zida etarlicha mablag‘larga ega bo‘limgan hududlarning ichki potensiali, ayniqsa qishloq aholi punktlari darajasida ayrim banklar uchun qilgan xarajatlarning qoplanishiga yoki kamida qo‘sishmcha daromadlar olishlariga qodir emas. Bank infratuzilmasiga turli korxonalar, shuningdek, bank faoliyatini ta’minlovchi agentlik

va xizmatlar majmuasi kiradi. Bank personalining normal faoliyati uchun bank ichki infratuzilmasini rivojlantirish talab etiladi, uning elementlariga quyidagilar kiradi:

1) kredit muassasasining nufuzi va ular bajaradigan operatsiyalar ro‘yxatini belgilovchi qonunchilik;

2) bankning o‘z manfaatlari kabi, uning hissadorlari, mijozlarining ham himoyasi va qonunchilik hujjati bajarilishini ta’minlovchi operatsiyalarni amalga oshirishga oid ichki qoidalar;

3) zamонавиј kommunikatsiya tizimlari bazasida bank faoliyatini boshqarish, ma’lumotlarni kompyuterda qayta ishslash, tahliliy asos, hisobotni tuzish;

4) bank boshqaruvi apparatining tuzilishi. Iqtisodiy institut sifatida bank bankning maqsadi va uning amaliy yo‘nalishlariga javob beruvchi qator bo‘linmalarga ega bo‘lishi lozim, aynan shu maqsadlarda bankda sektorlar, bo‘limlar hamda tegishli bo‘ysunuvga ega boshqaruv tashkil etiladi. Tashqi bank infratuzilmasiga: axborot, uslubiy, ilmiy va kadrlar ta’mnoti, shuningdek, aloqa va kommunikatsiya vositalari kiradi. Yuqoridagi nazariy jihatlarni, iqtisodchi olimlarning qarama-qarshi fikrlarini tahlil qilgan holda ushbu ta’riflar majmuasi mujassamlashtirildi.

Quyidagi jadvalda bank infratuzilmasining asosiy va yordamchi bloklar asosida boshqarilishi aks ettirilgan bo‘lib, olimlarning fikrlari negizida umumlashtirilgan.

1-jadval

Bank infratuzilmasining tarkibiy elementlari tizimi⁹

Ichki elementlar	Tashqi elementlar
Qonunchilik hujjalarning bajarilishi	Qonun chiqaruvchi organlar
Ilmiy-uslubiy ta’mnotni kengaytirish	Banklar assotsiatsiyasi
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari	Sug‘urta kompaniyalari
Bank mijozlari va omonatchilar manfaatlari	Kollektorlik agentliklari
Bank boshqaruvi apparati	Auditorlik va konsalting kompaniyalari
Bankning ichki hujjalari	AKT kompaniyalari
Bank operatsiyalarini amalga oshirish bo‘yicha ichki qoidalar	Oliy ta’lim muassasalari

Yuqoridagi nazariy jihatlarni tadqiq etish asosida bank infratuzilmasining tarkibiy elementlar, ya’ni tashqi va ichki elementlar asosida boshqarilishi aks ettirilgan bo‘lib, ular olimlarning fikrlari negizida umumlashtirilgan.

Mamlakatda bank infratuzilmasining rivojlanishi bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uzviy bog‘liqdir. O’zbekiston bank tizimi rivojlanishida normativ-huquqiy hujjalarni ishlab chiqish va ularning amaliyotda qo‘llanilishini bosqichma-bochqich amalga oshirish asosiy vazifalardan biri etib belgilandi (2-jadval).

⁹ Умарова М.Б. «Ўзбекистонда банк инфратузилмасини ривожлантириш истиқболлари» иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Т.:2020 й. 12 бет.

1.2-jadval**O'zbekiston Respublikasida bank tizimini rivojlantirish bosqichlari¹⁰**

Bosqich	Yillar	Bank tizimini rivojlantirish choralari	Islohot natijalari
1	1991-1994	O'tish davriga xos ikki pog'onali bank tizimining shakllanishi	Respublika bank tizimining zamonaviylashgan ko'rinishi
2	1995-2000	Respublika tovar aylanmasini jadallashtirish maqsadida inno-vatsion moliyaviy mahsulotlar muomalasini yanada rivojlantirish	Mamlakat tovar aylanmasi mexanizmini jadallashtiruvchi moliyaviy instrument va kredit munosabati muomalaga kiritildi
3	2001-2007	Banklarning ho'jalik yurituvchi sub'ektlarni kreditlash va investitsion jarayonlarda keng qatnashishi	Tijorat banklari kreditlash amaliyotining yangi turlari tatbiq etildi
4	2008-2010	Tijorat banklari kapitallashuvi darajasining oshishi va ularning iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida faol qatnashishi	Tijorat banklarining kapital-lashuv darajasi oshdi va ular iqtisodiy nochor korxonalarining moliyaviy barqarorlashuviga jalb etildi
5	2011-2015	Moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish	Tijorat banklari yangi xizmatlar turlari soni ortdi va innovatsion mahsulotlar tatbiq etildi
6	2017-2021	O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi	Bank tizimini isloh qilish barqarorligini ta'minlash, banklarning kapitallashuv darajasi va depozit bazasini oshirish, moliyaviy barqarorligi va ishonchlilagini mustahkamlash, shuningdek, istiqbolli investitsiya loyihalari hamda kichik biznes va xususiy tadbirdorlik sub'ekt-larini

¹⁰ Умарова М.Б. «Ўзбекистонда банк инфратузилмасини ривожлантириш истиқболлари» иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Т.:2020 й. 13 бет.

		kreditlashni kengaytirish kutilmoqda	yanada
--	--	---	--------

2019 yil 5 noyabrdagi O'RQ-580-sod O'zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni, 2019 yil 19 sentyabrdagi «To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida»gi O'RQ-578-sod Qonunida bank faoliyatini tubdan isloh etishda bank infratuzilmasini yanada rivojlantirish, to'lov tizimi infratuzilmalari bilan ta'minlash, to'lovlarning zamonaviy shakllarini joriy etish asosiy maqsad qilib belgilandi. Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, banklarda infratuzilma rivojlanishi huquqiy asoslarning joriy etilishi va ularni amaliyotda qo'llanilishi bank tizimida mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatlar samaradorligini oshiradi va aholining bank xizmatlariga bo'lgan talabining oshishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Финансово-кредитный словарь: в 3-х томах. /Под ред. Гарбузова В.Ф. – М.: «Финансы и статистика», 1994. – Т.1, С. 103
2. Федъко В.П., Альбеков А.У., Комарова А.М. Инфраструктура рынка: генезис проблемы. – Ростов-на-Дону, 1996. – С.71
3. Новиков В.А. Практическая рыночная экономика. Толкование 4000 терминов: Словарь – М.: «Флинта», Московский психолого-педагогический институт, 1999
4. Самуэльсон П. Экономика. – М.: Алгон, 1992. – Т.2, С. 324.
5. Котов А.В. Формирование и развитие банковской инфраструктуры в России. - Саратов, 2004. С 14.
6. Жуков Е.Ф. Деньги. Кредит. Банки: учеб. для вузов/ Под ред. Е.Ф.Жукова. М.ЮНИТИ-ДАНА, 2003. 600 с.